

UDK: 331.108.2.

Xamroyev X.R.**Buxoro davlat universiteti****Turizm va mehmonxona xo'jaligi****kafedrası professori, i.f.d.,**hamraevhalim@mail.ru

ERKIN IQTISODIY ZONA MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH QUROLI SIFATIDA

Annotasiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarining hozirgi zamon iqtisodiyotidagi ahamiyatini bayon qilib, ular XXI asr uchun o'ziga xos iqtisodiyot bo'lib borayotgan barqaror iqtisodiyotni yaratishda, uni takomillashtirishda muhim qurol ekanligi isbot qilib beriladi. Ayniqsa, ma'lum bir alohida olingan regionda barqaror rivojlanishga erishishda erkin iqtisodiy zonalarining ahamiyati katta ekanligi ta'kidlanadi. Hukumatlar milliy iqtisodiyotni, jumladan, uni ma'lum bir regionini barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini shunday maqsadda yaratish zarurki, ular mamlakat yoki hududning barqarorlik darajasini oshishiga xizmat qilsin.

Kalit so'lar: barqarorlik, barqaror rivojlanish, region barqarorligi, erkin iqtisodiy zona, barqarorlik ko'rsatgichi, barqarorlik konsepsiyasi.

Abstract. This article describes the importance of free economic zones in the modern economy, proving that they are an important tool in creating and improving a stable economy, which is becoming a unique economy for the XXI - century. In particular, it is emphasized that free economic zones play a significant role in achieving sustainable development in a particular region. Governments should create free economic zones for the sustainable development of the national economy, including a specific region, in such a way that they serve to increase the level of stability of the country or region.

Keywords: stability, sustainable development, regional stability, free economic zone, stability indicator, stability concept.

Kirish.

Hozirgi paytda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning bosh maqsadi – hududlarda iqtisodiyot rivojlanishini barqarorlashtirishdan iborat. Ular hududiy iqtisodiy o'sishning muhim nuqtasi, hududlararo integratsiya jarayonlarida kuchaytiruvchi katalizator sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali mintaqada zonal siyosatni takomillashtirishning institutsional muammolari, zonal siyosat orqali hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari, erkin iqtisodiy zonalarining zamonaviy shakllari (sun'iy intellektga asoslangan, elektronika, robototexnika va boshqa innovatsion ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zonalar) tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, texnologik madaniyatni modernizatsiya qilishda bunday zonalarining ahamiyatini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlarini ro'yobga chiqarishda erkin iqtisodiy zonalaridan foydalanishning samarali yo'llarini joriy qilish yo'nalishlaridagi tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish, jumladan, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish" maqsadlari ustuvor sifatida belgilangan. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy

¹ 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. - https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144.

rivojlantirishda drayver sohalar qatorida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish, shu bilan birga, yangi ish o'rinlari va yangi ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish quvvatlarini ishga tushirish mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi O'RQ-604-son "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 martdagi PF-41-sonli "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022 yil 13 iyundagi PF-153-son "Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 21 dekabrda PF-5600-son "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli turli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi¹.

Adabiyotlar tahlili.

Erkin iqtisodiy zonalarining yaratish, barqaror rivojlantirish muammolari va takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy tadqiqotlar qator xorijiy yetuk olimlar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Jumladan, uzoq xorijlik J.A.Luc, A.Ambroziak, C.Hartwell, M.Fraze, R.Ren, K.Zang kabi xorijlik olimlar bu muammolar yechimini topishga katta hissa qo'shganlar².

Xo'jalik yuritishning maxsus iqtisodiy - huquqiy tartibiga ega bo'lgan maydonlarni shakllantirish va rivojlantirish muammolari, ularni tashkil topishining nazariy-metodologik jihatlariga bag'ishlab A.S.Balandina, K.S.Bannova, V.I.Baronov, G.M.Kostyunina, O.V.Inshakov, E.V.Kryukova, K.Kalotay, Y.Y.Kovaleva, O.V.Korneyko, G.M.Kostyunina, Yu.B.Kravchenko, I.A.Mayburov, V.I.Masalitin, R.I.Zimenkov, O.V.Tinitskaya kabi Hamdo'stlik davlatlari olimlari tadqiqotlarida o'z aksini topgan³.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi O'RQ-604-son "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida" gi Qonuni. - <https://lex.uz/>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4931-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-maydagi "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF5032-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/>, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 - йил 15 - мартдаги "Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 137-сонли қарори. - <https://lex.uz/>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi 2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-2980-sonli qarori. - <https://lex.uz/>, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida - <https://lex.uz/docs/-3307879>, "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tўғrисиda" Ўзбекистон республикаси президентининг фармони. 21.12.2018. - <https://president.uz/uz/lists/view/2329>, Махсус иқтисодий зоналар тўғrисида. Ўзбекистон республикасининг қонуни, 17.02.2020 йилдаги Ўзбекистон республикасининг қонуни, 17.02.2020 йилдаги 604-сон. - <https://lex.uz/docs/4737511?ondate=07.06.2022>.

² Agropolis: The Social, Political and Environmental Dimensions of Urban Agriculture. Editor(s) Luc J.A. Mougeot Publisher(s) Earthscan, IDRC. ISBN 1844072320; Al Sakka F. A. M. Human Capital Development in Special Economic Zones the Case of Dubai. Diss. University of Salford, 2014.; Ambroziak A., Hartwell C. (2018) The impact of investments in special economic zones on regional development: the case of Poland. Regional Studies. Taylor & Francis Journals, vol. 52, iss. 10, pp. 1322–1331.; Bai X. J., Yan W. K., Chiu Y. H. (2015) Performance Evaluation of China's Hi-tech Zones in the Post Financial Crisis Era. Analysis Based on the Dynamic Network SBM Model. China Economic Review, vol. 34, pp. 122–134.; Bogataj, David. The role of free economic zones in global supply chains - a case of reverse logistics. 2011., Global Free Zone of the Year 2019 – Winners. Awards Special // fDi Magazine. – 2020. – P. 4–14.; Liu W. and others (2018). The development evaluation of economic zones in China. International Journal of Environmental Research and Public Health, vol. 15, iss. 1.; G.Fan, X.Xie, J.Chen, Z Wan, M.Yu, J.Shi - Marine policy, 2022 – Elsevier.

³ Иншаков О. В., Крюкова Е. В. (2017) Особые экономические зоны как институт развития nanoиндустрии: провалы, проблемы и перспективы. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3: Экономика. Экология. № 1. С. 6–17.; Калотай К. Особые экономические зоны и стимулирование инвестиций: международный опыт // Научные труды вольного экономического общества России. – 2019. – № 4 (218). – С. 297–307.; Кравченко Ю. Б. Особые экономические зоны в развитии мировой экономики // Российский внешнеэкономический вестник. – 2020. – № 1. – С. 93–103.; Майбуров И. А., Иванов Ю. Б. (2017) Особые экономические зоны. Теоретико-методологические аспекты развития. Монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 351 с., Павлов П. В., Защитина Е. К. (2020) Свободные экономические зоны как современный

O'zbekistonning quyidagi iqtisodchi olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida mintaqalar iqtisodiyotini samarali tashkil etish, barqaror va kompleks rivojlantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslarini, hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududning resurs salohiyatidan samarali foydalangan holda atrof-muhit muhofazasini iqtisodiy jihatdan to'g'ri tashkil etish masalalarini tadqiq etishgan¹.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida tanqidiy yondashuv, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, guruhlash, kuzatish hamda statistik usullardan foydalanilgan. Maqolada induksiya va deduksiya, tahlil va sintez hamda ilmiy abstraksiyadan foydalanib mintaqada barqaror rivojlanish katqoriyasi har tomonlama ko'rib chiqilgan, tizimli tahlildan foydalanib mintaqada iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalarining o'rni aniqlab berilgan, mantiqiy tahlil usulidan foydalanilgan holda Buxoro regionining barqaror rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalarining o'rni miqdoriy baholangan, O'zbekiston iqtisodiyotini barqarorlashtirishda erkin iqtisodiy zonalaridan unumli foydalanishning simkoniyatlari solishtirma tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar.

Yangi asrning boshlari ikki muhim tendentsiya bilan tavsiflanadi. **Birinchidan**, hozirgi sivilizatsiya global ekologik muammolarga (iqlim o'zgarishi, ozon qatlaminin buzilishi, chuchuk ichimlik suvinin tanqisligi va ifloslanishi, yer va o'rmonlarning degradatsiyasi, bioxilma-xillikning yo'q qilinishi, ortiqcha chiqindilarning shakllanishi va ularni yo'q qilish muammosi va boshqalar) duch kelmoqda. **Ikkinchidan**, dunyo oldingi davrlarga nisbatan tez sur'atlar bilan o'zgarmoqda. Shu bois, kechagi mezonlar asosida nafaqat bugungi vaziyatni xolisona baholab bo'lmaydi, balki kelajak istiqbollari aniqlab bo'lmaydi. Shunday zamon keldiki, endi insoniyat o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqishi, ularga erishish yo'llarini qayta belgilashi, kelajak avlodlar farovonligiga asoslangan yangi tamoyillar tizimini ishlab chiqishi kerak bo'lib qoldi. Bu insoniyat kelajak avlodlar uchun tabiiy kapitalni saqlashi kerak bo'lgan umumiy maqsaddir. Chuki birgina yer temperaturasi 1.5 - 2.5 °C ga oshishi o'simlik va hayvon turlarining taxminan 20-30% yo'qolishig olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Bundan tashqari, yuz millionlab odamlar ichimlik suvinin yetishmasligidan aziyat chekmoqda, suv toshqinlari bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda va hokazo².

XXI asrning birinchi o'n yillarida barqaror rivojlanish mavzusi tadqiqotchilar, davlat organlari va korporatsiyalar orasida mashhurlikka erishdi. Uning tobora ommalashib borayotgani avvalom-bor aholi sonining doimiy o'sishi sharoitida tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga e'tiborning kuchayishi bilan bog'liq³. Barqaror rivojlanish kontseptsiasining shakllanishii BMTning Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan "Atrof-muhit va rivojlanishi" bo'yicha konferensiyasida (1992) boshlangan. BMT Bosh kotibi Butros G'ali konferensiyadagi ma'ruzasida "...bugungi kunning global muammolarini hal qilishning yagona yo'li barqaror rivojlanishdir", deb ta'kidlagan edi. Barqaror rivojlanish zaruratini tushunib yetishda AQSh va Yevropaning ko'plab olimlari shug'ullana boshlashgan edi⁴.

институт развития в международном бизнесе. Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика. Т. 36. Вып. 4. С. 675–692. <https://doi.org/10.21638/spbu05.2020.406>.

¹ To'xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – T.: O'zME, 2020, – 204 b.; Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иктисод-молия, 2005. – 279 с.; Ahmedov E.A. va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2003. – 304 b.; Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2 (134). – B. 152-158.; Yavmutov D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish masalalari. Monografiya. / – Buxoro. Sadridin Salim Buxoriy. 2024. –212 b.

² Зеленый мир. – 2008. – № 1–2. – С. 3.

³ Jinhui, L., Qing I., Wei, G. & Chen, W. (2019). The Impact of Consumption Patterns on the Generation of Municipal Solid Waste in China: Evidences from Provincial Data. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 16(10), 1717. DOI: 10.3390/ijerph16101717., С.Н.Бородин, Модель оценки устойчивого развития региона на основе индексного метода, г. Санкт-Петербург, Российская Федерация. Экономика региона, Т. 19, вып. 1 (2023) - www.economyofregions.org.

⁴ Пределы роста: Доклад по проекту Римского клуба «Сложное положение человечества» / Медоуз Д.Х., Медоуз Д.Л., Рандерс Й. и др. – 2-е изд. – М.: Изд-во МГУ, 1991., Вайцзеккер Э., Ловинс Э., Ловинс Х. Фактор четыре. Затрат половина – отдача двойная. Новый доклад Римскому клубу. – М.: Academia, 2000., Хокен П., Ловинс Э. Ловинс Х. Естественный капитализм: грядущая промышленная революция. – М.: Наука, 2002.

Barqaror rivojlanish bu - zamonning ijtimoiy talablariga javob beradigan, shu bilan birga kelajak avlodlarning ham ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmaydigan rivojlanish tushunilishi taklif qilindi. Taraqqiyot kontsepsiyasida iqtisodiy samarador jihatning ustunligi jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan bir qator muhim tabiiy resurslarning kamayib ketishining real xavfiga tahdid soladi. Kelajak avlodlar va ularning turmush sharoiti haqida qayg'urish barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy g'oyalaridan biridir. O'zining eng umumiy ko'rinishida "barqaror rivojlanish" - bu ishlab chiqarish usullari va iste'mol darajasi hozirda hamda kelajakda tabiat va odamlarga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanishdir. "Barqaror rivojlanish" - bu resurslardan oqilona foydalanish, mehnatni intellektuallashtirish, optimal iqtisodiy o'sish va munosabatlarni uyg'unlashtirish. Barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillaridan biri iqtisodiy va boshqa faoliyatning atrof-muhitga ta'sirini strategik ekologik baholash zarurati hisoblanadi¹.

Zamonaviy iste'mol quyidagi integral ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi: Har bir inson uchun taxminan 20 tonna xom ashyo qazib olinadi va o'zlashtiriladi, insonning iqtisodiy faoliyati yerning yuzasining uchdan bir qismidan ko'prog'ini (taxminan 60 million kv.km.) egallaydi. Bundan tashqari xom ashyoni qayta ishlash jarayonida ko'plab moddalar hosil bo'ladi. Insoniyat hozirgi paytda 10 millionga yaqin moddalarni sintez qilmoqda, bu moddalarning taxminan 90 foizi keyinchalik texnologiya chiqindiga aylanmoqda. Keyingi bir asrda atrof-muhitga ta'sir qilishning yana bir mexanizmi - antropogen kelib chiqadigan mahsulotlarning emissiyasi (oqishi) paydo bo'ldi. Tabiatga mutlaqo begona mahsulotlar, shuningdek, radioaktiv moddalar va issiqlik tashlanmoqda².

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini shakllantirishga asos o'tgan asrning 80-yillari oxirida qo'yilgan edi. Barqaror rivojlanishning ko'plab ta'riflari mavjud, ammo eng keng tarqalgan va umume'tirof etilgan ta'rif 1987 yilda G. X. Brundlandt boshchiligidagi BMT komissiyasi tomonidan taklif qilingan ta'rifdir: "Barqaror rivojlanish - bu rivojlanishni ta'minlaydigan rivojlanishdir, kelajak avlodlarning ehtiyojlari hayotiga xavf solmagan holda, zamonaviy avlod ehtiyojlarini qondirishdir"³.

Agar inson harakatlari, uning motivlari hamda faoliyati oqibatlarining ta'siri o'rtasidagi bo'shliq bartaraf etilmasa, insoniyat halok bo'ladi. Atrof-muhitni saqlash muammosi ko'p jihatdan o'rnatilgan xatti-harakatlardagi bir qator stereotiplarini yengib o'tishdan iborat.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish chegarasi - tabiiy resurslarni iste'mol qilish bilan belgilandi. Tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish muammosini hal etishda quyidagi jihatni hisobga olish kerak: dunyo aholisining 1/4 qismi yashaydigan qismida dunyo resurslarining 3/4 qismini iste'mol qiluvchi rivojlangan davlatlar joylashgandir, samarali barqaror rivojlanishga o'tish, hozirgi ijtimoiy-ekologik-iqtisodiy vaziyatga mos modelni joriy etish ko'plab muammolarni hal qilish yo'llaridan biridir⁴.

Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga o'zaro bog'liq holda erishish orqali muvozanatli, o'zini o'zi ta'minlaydigan rivojlanish paradigmasi hisoblanadi. Qarashlar xilma-xilligiga qaramay, barqaror rivojlanish muammosi ikki asosiy yo'nalishda mavjud.

Birinchi yo'nalish - bu butun ijtimoiy rivojlanish maqsadlarini belgilash va ularga erishishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni aniqlash. Barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadlari ierarxiyasiga ko'ra, iqtisodiy maqsadlar ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga nisbatan bo'ysunuvchi holatda joylashtiriladi, ya'ni ular butun rivojlanishning barqarorligini ta'minlash vositasi sifatida qaraladi.

¹ Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы / Под ред. А.С. Новоселова. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2008. – 208 с.

² Госкомстат РФ [Электронный ресурс] /Официальный сайт. - Режим доступа: <http://www.gks.ru>.

³ Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России: коллективная монография / Под науч. ред. С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В. Кудрявцевой. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. — 284 с.

⁴ Социально-эколого-экономические проблемы устойчивого развития Х. А. Магомадова. Ростовский государственный строительный университет-ВЕСТНИК ЮРГТУ (НПИ). 2012. № 1.153-158с.

Ikkinchi yoʻnalish - iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini taʼminlovchi shart-sharoitlar va omillarni oʻrganish. Bu yoʻnalishda barqaror rivojlanish parametrlari va omillari aniqlanib, uning mutanosiblik shartlari va optimallik mezonlari ochib berilgan, oʻsish imkoniyatlari oʻrganilmoqda. Barqaror rivojlanish toʻgʻridan - toʻgʻri maʼnoda barqarorlikni, doimiy miqdoriy oʻsishni anglatmaydi, balki ekologik va ijtimoiy komponentlarni hisobga olgan holda "nizosiz" rivojlanishdir. "Sustainable" oʻzbek tiliga u "barqaror" deb tarjima qilingan "doimiy" emas, balki "barqaror" deb tushunish kerak¹. "Yashil oʻsish" tushunchasi barqaror rivojlanish kontseptsiasining kichik sohasi boʻlib, uni almashtirish yoki "rebranding" sifatida koʻrib boʻlmaydi. Hozirgi vaqtda "yashil" iqtisodiyot yangi vektor, barqaror rivojlanish dvigateli sifatida oʻrganilmoqda, uning asosiy vositalari innovatsion "yashil" texnologiyalar hisoblanadi².

Keyingi vaqtlarda yuzaga kelayotgan turli xil inqirozlar mavjud iqtisodiy rivojlanish modelining beqarorligini koʻrsatmoqda. Ushbu modelning muhim kamchiligidan biri ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda iqtisodiy oʻsishni ustun qoʻyilishidir. Shu sababi ham insoniyat iqtisodiy rivojlanishning yangi usullarini izlashga harakat qilmoqda³.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining keyingi paytda qabul qilingan kontseptual hujjatlari orasida eng muhimi "2030 Barqaror rivojlanish kun tartibi"da shakllantirilgan 2016-2030 yillarga moʻljallangan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridir⁴. Barqaror rivojlanish juda murakkab va rang-barang jarayon, uni ifodalash uchun juda koʻp koʻrsatkichlar foydalaniladi. Koʻrsatkichlarni tanlash dastlab OECD sxemasi boʻyicha amalga oshirildi, bu koʻrsatkichlarning toʻrt turini aniqlaydi: bosim (atrof-muhitga), holati (atrof-muhit), taʼsir (atrof-muhitga), javob (zarur choralar)⁵.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilda boʻlib oʻtgan Barqaror rivojlanish sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq va 2030-yilgacha BMT Global kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish boʻyicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tadbirlar toʻgʻrisida" gi 84-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror asosida mamlakatimizda 2030 yilgacha boʻlgan davrda "Barqaror rivojlanishning milliy maqsad va vazifalari" aniq belgilanib olingan. Mazkur qaror doirasida 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasida 16 ta milliy maqsad (BRM) va 125 ta maqsadli koʻrsatkich tasdiqlangan va bu borada faol ish olib borilmoqda. Shundan beri Oʻzbekiston Respublikasi ham dunyoning boshqa davlatlari kabi 2030 yilgacha barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, global tinchlik va xavfsizlikni ragʻbatlantirish majburiyatini olgan. Shu asosda Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi 841-son qarori qabul qilingan.

Iqtisodiyotning beqarorligi sharoitida maʼlum bir mintaqaning barqaror rivojlanishi koʻp jihatdan iqtisodiy jarayonlarni oqilona tartibga solishga hamda ekologik masalalarni ijtimoiy yoʻnaltirilgan tarzda tub oʻzgarishlarni amalga oshirishda ifodalangan puxta ishlab chiqilgan innovatsion strategiyaga bogʻliq. Bu barqaror rivojlanish "yashil iqtisodiyot"ning eng muhim unsurlarini shakllantira borish asosida taʼminlanadi, bunda hudud aholisining ehtiyojlarini

¹ Лясковская Е.А. Проблемы подготовки качественных трудовых ресурсов при реализации концепции устойчивого и инновационного развития // Вестник Башкирского государственного аграрного университета. – 2017. – № 4 (44). – С. 137–145.3.

² Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов Е.А. Лясковская, К.А. Григорьева Южно-Уральский государственный университет, г. Челябинск, Россия. Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». 2018. Т. 12, № 1. С. 15–22.

³ Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России: коллективная монография / Под науч. ред. С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В. Кудрявцевой. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. — 284 с.

⁴ Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. ООН, Нью-Йорк, сентябрь 2015 г.

⁵ Индексы и индикаторы устойчивого развития Тарасова Н. П., член-корр. РАН, проф., Кручина Е. Б., к.э.н. Устойчивое развитие: природа-общество-человек. Статьи победителей конкурса. Том II. 127-144с.

samarali qondirish maqsadida mintaqaviy tabiiy salohiyatdan resursni tejovchi va siklik foydalanishni nazarda tutadi¹.

Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari 134 tani tashkil etgan. Ular hammasi to'rt guruhga bo'linadi: ijtimoiy (41), iqtisodiy (26), ekologik (55) va tashkiliy (12). Indikatorlar Mintaqaviy va lokal xususiyat kasb etishi mumkin. Chunki biron bir mintaqadagi barqaror rivojlanish holati ikkinchi bir mintaqadagi yoki davlatdagi holatga to'g'ri kelmasligi mumkin. Barqaror rivojlanish indikatorlari maqsadli yo'nalishiga qarab 3 toifaga ajratiladi:

1. Harakat kuchiga qarab – kishilik jamiyati faoliyatiga tegishli jarayonlarning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholash;

2. Holatiga qarab – barqaror rivojlanishning ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va institutsional jihatlar holatini baholash;

3. Ta'sir kuchiga qarab – joriy holatning o'zgarishiga siyosiy yoki boshqa yo'llar bilan ta'sir etish imkoniyatini baholash.

O'zbekistonda jami 91 ta indikatorlar tanlab olingan bo'lib, shularning 68 tasi xalqaro indikatorlar ro'yxatidan olingan, 23 tasi esa O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasdiqlangan. Tanlab olingan indikatorlar atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tabiiy muhit va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlangan. Tanlab olingan indikatorlar milliy darajalarda ekologik vaziyatni baholash, monitoring qilish jarayonida uning o'zgarish dinamikasini kuzatish imkonini beradi².

Xullas, barqaror rivojlanish g'oyasining maqsadi – kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan tarzda hozirgi zamon kishilik jamiyatini uzviy bog'langan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotini bir me'yorda ta'minlashdan iborat. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, turli iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish va rivojlantirish, tabiat-jamiyat munosabatlarining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xususiyatlarini inobatga olgan holda davriy o'zgarishlarni doimiy taraqqiyot sari yo'naltirish talab etiladi.

BMTga qarashli UNKTAD tashkilotining o'zining 2019 yilda jahondagi EIZlar tahliliga bag'ishlangan maxsus konferensiyasida takidlab o'tadiki, bundan keyingi 2030 yilgacha mo'ljallangan taraqqiyotda erkin iqtisodiy zonalarining o'ziga xos tipini shakllantirish kerak, va u BRM (barqaror rivojlanish maqsadi) ga erishishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak³. Yani asrlar davomida insoniyatga xizmat qilib kelgan bu institut hozirgi zamon talablariga ham javob bera oladiganligi ta'kidlangan.

Erkin iqtisodiy zona (bundan keyin EIZ) ning barqaror rivojlanishdagi rolini va o'rnini aniqlash uchun bu kabi jamiyat institutlari faoliyatining xarakteri, ularga yuklangan vazifalar, bu institutlarning kelajakdagi evolyusiyasini hamda EIZlarga munosabatini aniqlash kerak. EIZni ishiga aloqador davlat strukturalarining aniq, chaqqon, halol va samarali ishlashi iqtisodiy, jumladan, soliq imtiyozlaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. EIZ yaratishdan ko'zlangan maqsad, uning tipi u yoki bu mamlakat hukumatlarining olib borayotgan zonalar yaratishga qaratilgan siyosatining mohiyatiga bog'liqdir.

EIZ barqaror rivojlanish uchun ham muhimki, u nafaqat mamlakatdagi yoki ma'lum hududdagi iqtisodiy muhitni yaxshilaydi, balki tadbirkor va mutaxassis kadrlarga zamonaviy biznesni o'rganish uchun katta maktab rolini o'ynaydi.

O'zbekiston kabi mustaqillikni qo'lga kiritganiga uncha ko'p bo'lmagan mamlakatlar uchun EIZ iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashning, bozor munosabatlarini rivojlantirishning, xalq farovonligini oshirishning muhim quroli hisoblanadi. Hozirgi paytda O'zbekistonda EIZlar yaratish o'zining boshlang'ich bosqichida, birinchi qadamlar endigina tashlanmoqda.

EIZni ma'lum mintaqada barqarorlikni ta'minlashda xalqaro iqtisodiy tajribani o'rganish instituti deb ham hisoblash mumkin, chunki bu institutni muvaffaqiyatli o'tagan har bir xo'jalik

¹ Мусостова Д. Ш., Мусостов З.Р. Стратегия устойчивого развития региона в условиях формирования «зеленой» экономики. г. Грозный, Чеченская Республика. Издательский дом «Среда».- Content is licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 license (CC-BY 4.0) <https://phsreda.com>.

² Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari: Monografiya / A. N. Nigmatov va boshq. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 120 b.

³ worldinvestmreport.org. 18 bet.

subyekti xalqaro biznes dunyosida faoliyat ko'rsata olish potensialiga ega bo'la boradi. EIZlarni tashqi iqtisodiy aloqalarni o'zgartirish va kengaytirishning "birinchi qator soldatlari" deb atasak bo'ladi. EIZlar xorijiy investitsiyani jalb qiluvchi kuchli qurol hamdir. Xitoy mamlakati ma'lumotlari bo'yicha EIZ joylashgan mintaqalarda yashovchi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya, ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha mamlakatnikidan 10 marta yuqori bo'lgan.

EIZ nafaqat o'z territoriyasiga, balki o'z territoriyasidan tashqariga, milliy iqtisodiyotni barqarorlashiga kuchli ta'sir etadi. Bu ta'sir asosan modernizatsiyalashtirish xarakteriga ega va u qator kanal, mexanizmlar orqali amalga oshadi. Bu ta'sirlardan biri - zonaning alohida olingan mamlakat darajasida ko'zga tashlanishidir. O'zining yangiligi bilan bu zonalar va unda tashkil etilgan birinchi xorijiy firmalar milliy tadbirkorlarning e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Natijada zonada qo'llanilayotgan ishlab chiqarishni boshqarish, tashkil etish va eksportni rivojlantirish borasidagi yangi usullarni zonadan tashqarida qay tarzda o'rganish samarasini hosil qiladi. Bu samara darrov ko'zga tashlanmaydi. Ammo, vaqt o'tishi bilan uning natijasi yaqqol bo'lib boradi.

O'rganish kanallardan yana biri - mahalliy firmalarning zonada mavjudligining o'zi hisoblanadi. Xorijiy firmalar bilan tashkiliy jihatdan yaqinligi muhim firmalararo aloqalarni yaratish hamda mahalliy va xorijiy firmalarni boshqarish va texnologik darajalarining muqarrar ravishda bir - biriga yaqinlashishiga olib keladi.

Uchinchi kanal texnik mutaxassislar, boshqaruvchilar, ishchilarning firmalararo migratsiya jarayonidir. Miqdor jihatdan bu migratsiya unchalik katta bo'lmasligi mumkin, ammo sifat jihatdan ancha muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Oldin zonadagi ilg'or korxonada ishlab chiqarish, zamonaviy menejment, ishlab chiqarishni tashkil etish, texnika va texnologiya bilan ishlagan xodim zonadan tashqariga ishga borganida, u ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga ancha ta'sir qilishi mumkin.

EIZ jahon tajribasini o'rgatuvchi maktab sifatida quyidagi muhim vazifalarni ham bajaradi:

- ❖ iqtisodiyotni tartibga solish, korxonani boshqarishda jahon tajribasiga ega bo'lish;
- ❖ milliy ishchi, injener, boshqaruvchi, xo'jalik yurituvchi kadrlarni o'qitish va tayyorlash;
- ❖ tashkil qilish, boshqarish va moliya sohasida jahon tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ish kuchi malakasini oshirish;
- ❖ Ishchi xodimlar va boshqaruv kadrlarning malakasining oshishirish;
- ❖ yangi, noyob mutaxassisliklarni milliy kadrlar tomonidan egallanishi;
- ❖ xo'jalik faoliyati yuritishning yangi, sinalmagan unsurlari, usullari, modellarini tekshirib ko'rish, sinovdan o'tkazish¹.

Ushbu o'ziga xos maktabni yaratish uchun, O'zbekiston EIZlari jahonning "zona bozorida" raqobatbardosh bo'lishlari uchun xalqaro standartlarga javob beradigan qonunchilikni qabul qilishi kerak, uzoqroq muddatga va xorijiy investorlarga qulayroq tarzda, yuqoriroq darajada imtiyozlarni belgilashi maqsadga muvofiqdir.

Erkin iqtisodiy zona texnologik, innovasion yangiliklarni o'rgatuvchi maktab sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Mamlakatdagi erkin iqtisodiy zonalar jahon iqtisodiyotida biznesni yuritishda jamlangan ilg'or tajribani tadbiiq etishni o'rganish maktabiga aylanib boradi.

O'zbekiston kabi yopiq iqtisodiyotdan ochiq iqtisodiyotga, totalitar iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga evolyusiyalashib borar ekan EIZlar bu borada tajriba bazasini ham o'taydi. Anklav xarakterda bo'lgan, mamlakatning kichik bir qismini egallagan EIZ butun mamlakatning iqtisodiyotini global ravishda liberallashtirishda butun mamlakatga nisbatan ustunlikka ega. Chunki kichik maydonni tartibga solish, salbiy oqibatlarni bartaraf qilish ancha oson bo'ladi².

Xorijiy tajriba yana shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda EIZ rivojlanishida kichik va o'rta biznesning roli tobora ortib bormoqda. Shuning uchun ularni maxsus imtiyozlar bilan zonaga jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Yirik transmilliy korporatsiyalarning u yoki bu mamlakatda investitsiya kiritishi uchun maxsus imtiyozlarga unchalik muhtojligi yo'q. Bundan tashqari,

¹ O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning jahon tajribasini qo'llash imkoniyatlari. A Laziza - Ijtimoiy fanlarda innovasiya. Onlayn ilmiy jurnal, 2022.

² Hamroev H.R., Hasanov R. Iqtisodiy barqarorlik shartlari. //Jamiyat va boshqaruv. Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – tarixiy jurnal. - 2001y., N 4. 30-32b.

ularning ko'pchiligi sekinroq, shoshilmasdan faoliyat yuritishni ma'qul ko'radi. Kichik va o'rta korxonalar esa aksincha, manevrli bo'lib, xo'jalik yuritish va bozor talabining o'zgarishiga tezgina moslasha oladi. EIZga nafaqat xorijiy, balki mahalliy kichik va o'rta biznes jalb qilinishi oqibatida zonaning anklavlik xarakteri kamayadi, milliy iqtisodiyotga integratsiyalashuvi osonlashadi. Yana bir holatni ta'kidlash zarurki, EIZda faoliyat yurutuvchi mahalliy kadrlar xorijiy investorlarga mahalliy resurslarni oqilona ishlatishga ko'maklashuvchi noyob kadrlarga aylanishiga imkon beradi.

Xullas, barqarorlik – insonlar uchun iloji boricha uzoq vaqt davomida yer yuzida rang-barang tabiat bilan birga yashashi uchun qilingan ijtimoiy maqsaddir. Bu maqsadlarga erishishda esa insoniyat anchadan beri ishlatib kelayotgan erkin iqtisodiy zona instrumentini ham ishlatish zarur.

Hozirgi paytda, butun dunyo industrial iqtisodiyotdan innovatsion iqtisodiyotga qarab bormoqda. Erkin iqtisodiy zonalar – XX asrning ikkinchi yarim yilligining eng ko'zga tashlanadigan institutsional innovatsiyasidir. Uning ahamiyatini quyidagi ikki raqamning o'zi ko'rsatadi: yigirmanchi asr oxiriga kelib, jahon savdo aylanmasining 30% EIZ orqali o'tgan va jahon kapital aylanmasining qariyb yarmi EIZlar orqali amalga oshirilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNKTAD) erkin iqtisodiy zonalar bo'yicha maxsus tadqiqotlariga ko'ra 2019 yilda dunyoning 147 davlatida 5400 EIZ bo'lgan, keyingi besh yil ichida 1400 ta yangi qurilgan va 500 ta qurish ustida ish olib borilmoqda¹.

Biz olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, EIZlarning qirqdan ortiq turi bo'lib, dunyoning 140 dan ortiq mamlakatida barpo etilgan. Yigirmanchi asrning yetmishinchi yillarida jahonda 700 ta EIZ bor degan ma'lumot beriladi, asr oxiriga kelib esa jahonda 4 mingta EIZ bor degan ma'lumotlar beriladi². Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, planetada ularning soni kichik zonalarini hisobga olganda 7000 dan oshib ketgan. Hozir ular dunyo iqtisodiyotida salmoqli o'rinni egallab bormoqda. «EIZ, - amerikalik olimlar M.Fraze va R.Renlar fikricha, - iqtisodiy rivojlanish jabhasida insoniyatning eng qadimiy va shu bilan birga eng zamonaviy g'oyalaridan biridir»³.

EIZlarning ahamiyatini ko'rsatish uchun, ularni jahon xo'jaligining mamlakat ichidagi «orollari», xorijiy investitsiya, texnologiyalar, boshqarish tajribasining oqib keluvchi «derazalari», jahon xo'jaligiga uyg'unlashib ketishda «erkin eshiklar» deb nomlanuvchi yangi siyosatdir, deb nomlashadi. Bizningcha, EIZ jahon iqtisodiyoti okeani bilan milliy iqtisodiyot dengizi o'rtasidagi shlyuzdir. EIZ keyingi o'n yilliklarda alohida xo'jalik strukturasi sifatida nafaqat ilmiy adabiyotlar-u, ensiklopedik lug'atlarda mustahkam o'rinishdi, balki barcha qit'alarda kishilar amaliyotiga keng kirib keldi.

EIZlarni ahamiyatini ko'rsatish uchun ularning bir turi bo'lgan «Selikon velli» nomi bilan mashhur texnik - tadqiqot zonalarini yangi texnologiyalarni yaratishda qo'shayotgan xizmatini hisobga olib «jahon iqtisodiyotining yadrosi» deb bejiz nomlashmayapti⁴.

Jahon bozoriga nisbatan ochiqlik EIZlarni barcha qit'alar bo'yicha milliardlab dollar (\$) investitsiya qilayotgan, juda katta potensialga ega bo'lgan transmilliy kompaniyalar uchun ham jozibali bo'lib bormoqda. EIZlarda foyda normasi yiliga 30-35% ni, Osiyoning EIZlarida joylashgan transmilliy korporatsiyalarida esa 40% tashkil etadi. Kapital mablag'larini o'zini qoplashi esa 2-3 yilni tashkil etadi⁵.

EIZlar xalqaro iqtisodiy tashkilotdir, ular global xarakterga ega, ularning yordamida jahon xo'jaligi aloqalarida butun mintaqalarda juda intensiv integratsiya jarayoni sodir bo'lmoqda. Xalqaro integratsiyaning hozirgi zamon bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri iqtisodiy va

¹ https://unctad.org/system/files/official-document/wir2019_overview_ru.pdf

² Цуй Шань. Становление и развитие СЭЗ КНР. М. 1999г. - <https://economy-lib.com/stanovlenie-i-razvitiye-sez-knr>.

³ Федорова Е. В. Свободные экономические зоны: привлечение прямых реальных инвестиций: Дис. ... канд. экон. наук: СПб, 2002. 119 с.

⁴ Болкаров А. К. Свободная экономическая зона как институциональный инструмент адаптации России в процесс экономической глобализации. Дисс.к.э.н. Мировая экономика. Ростов на Дону. 2004. 214с.

⁵ Хамроев Х. Р. Зонал сиёсат: методология, хорижий тажириба ва қўллаш йўналишлари //Монография. Тошкент. «Фан» нашриёти. 2008й. – 2008. – Т. 352.

ilmiy-texnik rivojlanishning lokazatsiyalashuvi hisoblanadi. Buni tashkiliy jihatdan ifoda etuvchi bo'lib EIZni yaratish chiqmoqda. Shuning uchun, ularni jahon bozorining milliy iqtisodiyotga qurilgan kichik strukturalari, deb nomlashadi.

EIZlar internatsionallashuvning sifat jihatdan yangi bosqichi hisoblanadi, chunki bunda milliy chegaralanganlik bartaraf etiladi hamda ichki va tashqi resurslarning birlashuvini turli - tuman imkoniyatli variantlari yuzaga chiqadi. Chunki hozirgi zamon sharoitida milliy xo'jalikning biqirligi nafaqat maqbul emas, balki mumkin emas. Xalqaro kompaniyalar o'zining ishlab chiqarish va tijorat faoliyati uchun qulay sharoitni qidirishda EIZlarni juda foydali iqtisodiy struktura, deb qaraydi va o'zining ekspansiv siyosatida EIZlarni muhim yo'nalish deb harakat qiladi.

EIZ lokal bir maydonda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini safarbar qilish yo'li bilan har qanday mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiruvchi vosita sifatida chiqadi. EIZlar bozor munosabatlari, tadbirkorlikni yuqori darajada rivojlantirish o'chog'lari, texnologiyalar va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish joylaridir. EIZ bozor transformatsiyasining eng ta'sirchan, samarali vositasi hisoblanadi, chunki u xorijiy investitsiyalashning boshqa usullaridan farqli o'laroq isloh qilinayotgan mamlakatning makroiqtisodiy muhitiga kompleks ravishda ta'sir qilishni ta'minlaydi¹.

Hukumatlar EIZlardan iqtisodiy faoliyatni o'stirish, investitsiyani ko'paytirish, bandlik darajasini oshirish, xalqaro savdoni rivojlantirish kabi maqsadlarga erishish uchun foydalanadilar. Uzoq muddatni oladigan bo'lsak, EIZlar texnologiyalar, "nou – xau"larni yaratish, mintaqani rivojlantirish, samarali xo'jalik aloqalarini shakllantirish markazlariga aylanishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining transkorporatsiyalar bo'yicha markazi (UNCTC) keyingi o'n yillarda iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tendensiyalaridan biri EIZlarning o'sishi, deb hisoblaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIZlar mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti darajasidan qat'iy nazar turli xil mamlakatlarda yaratilmoqda va faoliyat yuritmoqda. Ammo, bu tashkilotlar turli xil mamlakatlarning milliy iqtisodiyotlari uchun bajarishi zarur bo'lgan vazifalari, maqsadlari, yaratish sharoitlari zaruriyati bilan farqlanadilar. Tadqiqotchilar zonalashtirishning jahon amaliyoti paydo bo'lishi va rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir qilgan deb hisoblashadi: iqtisodiy naf, zamonaviy texnika va texnologiyalarni jadal sur'atda yaratish va qo'llash, siyosiy omillar, geopolitik sabablar, mamlakatlar o'rtasida obyektiv integratsiyaning zarurligi va boshqalar².

U yoki bu mamlakatda zonani yaratish maqsadi, tipi, nomi hukumatning ma'lum ma'muriy - territorial birliklarda olib boriladigan zonalashtirish siyosatining mohiyatiga bog'liq bo'ladi. EIZ ham yangi, ham oldin qoloq bo'lgan eski rayonlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Oxir-oqibat EIZ ochiq iqtisodiyotni shakllanishiga va shu bilan ishlab chiqarish samardorligi darajasini qo'tarilishiga o'z hissasini qo'shadi.

EIZlarning ijobiy xususiyatlaridan biri eksport rivojini jadallashtiradi va mamlakatni xalqaro darajaga chiqishini osonlashtiradi, tashqi savdoda ijobiy saldo bo'lishiga imkon beradi, hamda aholi hayot darajasini oldin zonada, so'ngra butun mamlakatda ancha tezroq ko'tarilishiga imkon beradi.

XXI asr boshiga kelib, dunyo EIZni yaratish, faoliyat yuritish bo'yicha juda katta tajriba yig'di. Bu iqtisodiy strukturalarning ommaviyligi hamda ularning barcha kontinentlarda faoliyat yuritishi eksport iqtisodiy zonalarining butun jahon assotsiatsiya tashkil topishiga olib keldi. Bu assotsiatsiya rahbariyati butun dunyo miqyosida EIZlarning tashkil topishi va faoliyat yuritish mexanizmini ipidan-ignasigacha o'rganadi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi va butun dunyo mamlakatlariga bunday zona tashkilotchilariga takliflar beradi. Dunyoning turli xil mamlakatlaridagi EIZlar yaratish va faoliyat yuritish tajribasini o'rganib, «Zonalarining umumjahon assotsiatsiyasi» (R. Bolin va R. Xeyvud) EIZlar to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlashdi. Bu hujjat 6 bobdan iborat: qonunlarni qabul qilish

¹ Эркин иктисодий зоналарни ривожлантиришнинг жаҳон тажрибаси. М.К.Рашидов - "Иктисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2018й. 5/2018 (№ 00037) www.iqtisodiyot.uz.

² Значение свободных экономических зон в развитии национальной экономики. З.О.Умарова, Ф.Я. Обидова - Актуальные научные исследования в современном мире, 2019.

maqsad va sohalari, EIZlarni ta'sis etish va tartibga solish, zonadan foydalanuvchilarga imtiyozlar, EIZ maydonida valyuta nazorati, EIZga qatnashish huquqlari va boshqa sharoitlar. Bu mualliflar taklifi bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish va eksportni ko'paytirish, yangi texnologiyalarni tarqatish, mehnat unumdorligini oshirish, mamlakat markazidan uzoq bo'lgan mintaqalarni rivojlantirish yo'li bilan davlat byudjeti uchun barqaror qo'shimcha daromad manbai yaratiladi, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga imkon beradi.

EIZlarda to'lovlar, uskuna va materiallarni eksport va import qilishda soliqlarining yo'qligi, eksport tovarlarning nisbatan arzon bo'lishi va investitsiya rentabelligini yuqori bo'lishiga imkon beradi. EIZlarda investor firmalarga, odatda, 5 yildan 35 yilgacha soliq ta'tillari beriladi. Ayrim hollarda bu muddat aniq bir chegaraga ega bo'lmashligi ham mumkin. Zona ma'muriyati xorijiy tadbirkorlar va ishlovchilar bilan munosobatlarni tashkil etishning turli xil variantlarini qo'llash mumkin. Ko'p hollarda imtiyozli soliqqa solish mulkka ham, daromadga ham taaluqli bo'ladi. Xorijiy va milliy investorlar biznes obyektni joylashtirish uchun tanlash imkoniga ega bo'lishlari kerak. Tanlashda esa quyidagilar belgilovchi omil bo'ladi: ishlab chiqarish va transport xarajatlari, mahsulot sotishning kanallari va geografiyasi, atrof-muhitning ahvoli, boshqarish tizimining ishonchliligi va soddaligi.

EIZ uchun joy tayyorlash bo'yicha zarur infrastruktura loyihalari xorijiy manbalar hisobidan ham, davlat byudjeti hisobidan ham moliyalashtirilishi mumkin. Boshlang'ich davrda qilinadigan xarajatlar ish yaxshi tashkil qilinganda, odatda besh yilda o'zini oqlaydi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, EIZni yarata borishda doimo o'zgarib turuvchi hukumatning ijroiya organlari qarorlari bilan emas, balki qonun talablari asosida ish olib borish kerak.

EIZlar yaratishda gigant rejalar bilan qiziqib ketmaslik kerak, masalan, dastlab Rossiya EIZ yaratishda gigantomaniya kasalligiga muhtalo bo'ldi. Bohlang'ich bosqichda Rossiya uchun har biri 350 ga dan katta bo'lmagan maydonda 10 ta erkin zonani yaratishga kuchni, mablag'ni yig'ish kerak edi. EIZni xorijiy tadbirkorlarning investitsiyaviy faolligini qo'llab - quvvatlash uchun yetarli darajada infrastrukturaga ega bo'lgan mintaqalarda qurish kerak.

EIZ mamlakatni «jadal ravishda modernizatsiyalash» usuli sifatida chiqadi, chunki u bozor transformatsiyasi bilan parallel ravishda jahon iqtisodiyotiga kirishni ta'minlaydi. Boj olishning, soliqqa tortish, subsitsiyalash, baho belgilashning, alohida tartibi va mexanizmini o'rnatish, valyutaning o'ziga xos tartibini o'rnatish ko'plab moliyaviy, moddiy, texnologik va mehnat resurslarini jalb qiladi. Buning oqibatida iqtisodiy potensial tez rivojlanadi, valyuta tushumlari ko'payadi, ichki bozor raqobatbardosh tovar va xizmatlar bilan to'yinadi, eksport anchagina ko'payadi.

EIZlar yaratishning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, ular ma'muriy – buyruqbozlik tizimining asoslariga suv qo'yadi, yangi bozor tizimining boshqarish unsurlarini kiritadi. Xitoydagi "Shenchjen" EIZi "Osiyo ajdarholari" 20 yilda bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini 10 yilda bosib o'ta oldi.

1-jadval.

EIZlarning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalishi (2019 yil holatida)¹

Jahon mintaqalari	Mintaqadagi davlatlar soni	EIZlari bor davlatlar*	Foiz hisobida	EIZlari yo'q davlatlar**	Foiz hisobida
Rivojlangan davlatlar	32	28	87,5	4	12,5
Lotin Amerikasi	45	41	91,1	4	8,9
Afrika	54	16	29,6	41	70,4
Osiyo	37	26	70,3	11	29,7
Okeaniya	18	12	66,6	7	33,4
O'tish iqtisodiyoti davlatlari	32	25	78,1	8	21,9
Jami	218	147	67,4	75	32,6

Izoh: * - hozirgi paytda EIZi bor yoki keyingi o'n yilliklarda bu quroldan foydalangan davlatlar.

** - EIZlari yo'q yoki aniq ma'lumot bo'lmagan davlatlar.

¹ Muallif ishlanmasi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida EIZlarning ahamiyati, ularning jahon mamlakatlari bo'yicha tarqalganidan ham ko'rinadi. Hozirgi paytda EIZlar dunyoning barcha qit'a va mintaqalarida mavjud. Iqtisodiy taraqqiyotga yuz tutgan barcha davlatlar o'z taraqqiyotini jadallashtirish uchun erkinlashtirishning buyuk quroli bo'lgan EIZlar mexanizmidan foydalanishga harakat qilmoqda. Qo'yidagi jadval ushbu fikrning isbotidir.

Jadvaldan shu ko'rinadiki, dunyo davlatlarining 67,4 foizida, ya'ni 218 davlatdan 147 tasida EIZlar bor. Biz EIZlarni jahon bo'yicha tarqalishini tahlil qilib chiqish uchun dunyo davlatlarini taxminiy ravishda olti mintaqaga bo'lib chiqdik. Bu mintaqalarning qaysisida EIZ bor - yo'qligini aniqlab chiqdik. EIZlari bor davlatlarning hissasi eng yuqori Lotin Amerikasida va rivojlangan davlatlarda ekan (mos ravishda – 91,1 va 87,5 foiz). O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlariga ham keyingi yillarda bu institut jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Afrikada esa eng kam, ya'ni 29,6 foizni tashkil etadi.

O'zbekistonga kelsak, birinchi bunday zona 2008 yilda tashkil etilgan bo'lsa, hozirgi paytda ularning soni 24 taga yetdi, kichik hududlar soni ham yildan – yilga oshib bormoqda. Ammo, hamma ish silliq ketyapti deb bo'lmaydi, omadsizliklar ham bo'lgan. Quyida EIZlar yaratishda ayrim muvoffaqiyatsizlikka uchragan urinishlar keltirilgan:

1. «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (25.04.1996 y. 220-I - son) bekor qilingach, Buxoro, Xiva va Samarqandda tashkil etish mo'ljallangan turistik zonalar.

2. "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi (1996 y.)

3. "Samarqand" xalqaro turizm bo'yicha maxsus ochiq iqtisodiy zona (1997 y.)

4. Nukus erkin sanoat-iqtisodiy zonasi (1998 y.)

5. Toshkent shahrida Sirg'ali tumanida yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish zonasi (2007 y.)

6. Namangan viloyati Chortoq tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash bo'yicha maxsus sanoat zona (2007).

7. Buxoro turistik erkin iqtisodiy zona (2017) y.

Xulosa qilib aytganda, EIZlar jahonda ancha keng tarqalgan ekan. Ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan davlatlarida hamda Janubiy – sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida EIZlar ommaviy tarzda tarqalgan. Qolgan mintaqalarda ham EIZlar tarqalishi juda yuqori, faqatgina Afrika qit'asida, mustamlakachilikdan endigina qutulgan, erkinlikka e'tibor hali yetarli darajaga ko'tarilmagan qit'adagina EIZlarga hozircha e'tiborning kamroqligini ko'ramiz. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu kabi jahonda keng tarqalgan iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi vosita O'zbekistonda ham keng qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Keyingi yillarda erkin iqtisodiy zona institutidan foydalanish keng quloch yoyib ketdi va hozirgi paytda ularning soni 21tdan oshib ketdi. Biz quyida faqat Buxoro viloyatidagilarni tahlil qilib chiqdik.

2-jadval.

Buxoroda faoliyat yuritayotgan EIZlar tahlili (01.01.2025 yil holatigda.)¹

Nomlanishi	Qachon ochilgan	Umumi y yer maydoni	Qilingan ishlar	Amalga oshirilayotgan loyihalar:	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	Amalga oshirilgan eksport:	Infratuzilma uchun byudjetdan ajratilgan mablag
"G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasi	O'R Prezidenti ning 2017 yil 12 yanvardagi PF-4931-son farmoni	883 gektar	68,75 gektar maydonda 167,0 mln dollarlik investitsiya kiritish hisobiga 36 ta loyiha ishga tushirilib,	87,8 gektar maydonda qiymati 467,4 mln dollarlik 19 ta loyiha (ish o'rni 3 540 ta)	890,3 mlrd so'm (2024 yil).	17,4 mln dollar (2024 yil).	115,9 mlrd so'm

¹ <http://www.buxstat.uz/> hamda <https://stat.uz/uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

			3 296 ta ish o‘rinlari yaratilgan.	amalga oshirilmoqda.			
“Buxoro-agro” erkin iqtisodiy zonasi	O‘R Prezidenti ning 2018 yil 10 iyuldagi PQ-3843-son qarori.	3008 ga.	220,3 mln dollarlik investitsiya kiritish hisobiga 149 ta loyiha ishga tushirilib, 3 824 ta ish o‘rinlari yaratilgan.	189,69 gektar maydonda qiymati 99,9 mln.dollarlik 65 ta loyiha (ish o‘rni 1 817 ta) amalga oshirilmoqda.	358,8 mlrd so‘m (2024 yil)	2,7 mln dollar (2024 yil).	74.96 mlrd so‘m
“Qoraqo‘l” erkin iqtisodiy zona	O‘R Prezidenti ning 2021 yil 13 avgustdagi PQ-5221-son qarori	566,6 gektar.	0 gektar maydonda 0 mln dollarlik investitsiya kiritish hisobiga 0 ta loyiha ishga tushirilib, 0 ta ish o‘rinlari yaratilgan.	392,5 gektar maydonda qiymati 4 555 mln dollarlik 6 ta loyiha (ish o‘rni 2 591 ta) amalga oshirilmoqda.	0 mlrd so‘m (2024 yil).	0 mln dollar (2024 yil).	180,8 mlrd so‘m
“Buxoro sanoatni rivojlantirish kompleksini” maxsus sanoat parki	O‘R Prezidenti ning 2024 yil 16 fevraldagi PQ-74-son qarori.	1000 ga, shu jumladan birinchi bosqichda 100 ga	374 mlrd so‘mlik (61,3%) ishlar bajarilgan	293 mln. doll. bo‘lgan dastlabki 19 ta istikbolli loyixalar ro‘yxati shakllantirilgan	0 mlrd so‘m (2024 yil).	0 mln dollar (2024 yil).	Faqat ikkita korxona qurilmoqda

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki Buxoro mintaqasida O‘zbekistonda mavjud EIZlarning 4 tasi faoliyat yuritadi, ammo ularning faqat ikkitasi sal - pal samarali faoliyat yurutsa 2tasi hali tuzuk bir ishni ham boshlagan emas. Hatto eng yaxshi ishlayotgan G‘ijduvon zonasi ham, mahalliy xalqining tadbirkorlik qobiliyatini hisobga olsak, uncha yaxshi emas. O‘zbekistonda mavjud 829 ta kichik zonalardan esa faqat 59 tasi (7 foizi) joylashgan¹.

Totalitar tizimdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan O‘zbekiston kabi davlatlar uchun bu xossa juda ham muhimdir. Hozirgi holatda O‘zbekiston uchun EIZni yaratish bundan tashqari xorijiy kapital, nou-xau, ishlab chiqarishni tashkil etish, zamonaviy menejment bilan mahalliy xom ashyo, mehnat va ilmiy-texnik resurslarni qo‘shishning eng samarali quroli ham hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Barqarorlik – insonlar uchun iloji boricha uzoq vaqt davomida yer yuzida rang-barang tabiat bilan birga yashashi uchun qilingan ijtimoiy maqsaddir. Bu maqsadlarga erishishda esa insoniyat anchadan beri ishlatib kelayotgan erkin iqtisodiy zona instrumentini ham ishlata olishi zarur.

EIZlar doimo rivojlanuvchi va takomillashuvchi iqtisodiy strukturalardir. Ular juda qadimiy zamonlarni, sanoat to‘ntarilishini va ilmiy - texnika revolyusiyasini yaqqol aks ettiradi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnika revolyusiyasi EIZlarning «texnopolis»,

¹ Xamroyev X.R. Mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish.dissertasiya.Buxoro.2025y.314b.

«innovatsion markazlar», «texnopark» kabilarni tug'dirdi. Eng yangi tiplari zoopolis, agropolis, noopolis, informatsion zonalar XX asr oxirida paydo bo'ldi, ular uchinchi ming yillikka yo'l ochmoqda. Ularning kelajagi porloq deb bashorat qilinmoqda.

EIZlar jahonda ancha keng tarqalgan ekan. Ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan davlatlarida hamda Janubiy – sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida EIZlar ommaviy tarzda tarqalgan. Qolgan mintaqalarda ham EIZlar tarqalishi juda yuqori, faqatgina Afrika qit'asida, mustamlakachilikdan endigina qutulgan, erkinlikka e'tibor hali yetarli darajaga ko'tarilmagan qit'adagina EIZlarga hozircha e'tiborning kamroqligini ko'ramiz.

Hozirgi zamon EIZlari uzoq taraqqiyot yo'lida yig'ilgan ijobiy tajribani o'zida mujassamlashtirib, eng yangi eksport-ishlab chiqarish mohiyati va ish tajribasi bilan boyib bormoqda. Ularni yaratish iqtisodiyotni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni aktivlashtirishga qaratilgan. Bunday zonalar iqtisodiyoti jahon bozoriga yuqori darajada ochiqlikka ega, ularning bojxona va soliq tartibi esa milliy va xorijiy investitsiyalarga o'ta qulay hisoblanadi.

Hozirgi holatda O'zbekiston uchun EIZni yaratish bundan tashqari xorijiy kapital, nou-xau, ishlab chiqarishni tashkil etish, zamonaviy menejment bilan mahalliy xom ashyo, mehnat va ilmiy-texnik resurslarni qo'shishning eng samarali quroli ham hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonalar ma'lum bir regionning barqaror rivojlanishiga juda yaxshi xizmat qila oladigan quroldir, faqat bu qurolni oqilona ishlatib bilish kerak, buning uchun uning maqsadi foyda olishga emas, balki barqarorlashtirishga urg'u berilgan bo'lishi kerak, uni puxta ishlata olish uchun esa zaruriy qonuniy baza yaratilgan bo'lishi kerak hamda davlat tomonidan, jumladan, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan samarali qo'llab quvvatlash ham bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 17 fevraldagi O'RQ-604-son "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida" gi Qonuni. - <https://lex.uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PF-4853-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4931-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-maydagi "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi PF5032-sonli Farmoni. - <https://lex.uz/>
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 - йил 15 - мартдаги "Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 137-сонли қарори.- [https://lex.uz.](https://lex.uz/)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi 2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida gi PQ-2980-sonli qarori. - [https://lex.uz.](https://lex.uz/)
7. 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida - [https://lex.uz/docs/-3307879.](https://lex.uz/docs/-3307879)
8. "Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон республикаси президентининг фармони. 21.12.2018. - [https://president.uz/uz/lists/view/2329.](https://president.uz/uz/lists/view/2329)
9. Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида. Ўзбекистон республикасининг қонуни, 17.02.2020 йилдаги Ўзбекистон республикасининг қонуни, 17.02.2020 йилдаги 604-сон. - [https://lex.uz/docs/4737511?ondate=07.06.2022.](https://lex.uz/docs/4737511?ondate=07.06.2022)
10. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. - [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144.](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144)
11. Ahmedov E.A. va b. - Mintaqaviy iqtisodiyot. T., 2003. – 304 b.

12. Agropolis: The Social, Political and Environmental Dimensions of Urban Agriculture. Editor(s) Luc J.A. Mougeot Publisher(s) Earthscan, IDRC. ISBN 1844072320.
13. Al Sakka F. A. M. Human Capital Development in Special Economic Zones the Case of Dubai. Diss. University of Salford, 2014.
14. Ambroziak A., Hartwell C. (2018) The impact of investments in special economic zones on regional development: the case of Poland. *Regional Studies*. Taylor & Francis Journals, vol. 52, iss. 10, pp. 1322–1331.
15. Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari: Monografiya / A. N. Nigmatov va boshq. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 120 b.
16. Болкаров А. К. Свободная экономическая зона как институциональный инструмент адаптации России в процесс экономической глобализации. Дисс.к.э.н. Мировая экономика. Ростов на Дону. 2004. 214с.
17. Бородин С.Н., Модель оценки устойчивого развития региона на основе индексного метода, г. Санкт-Петербург, Российская Федерация. Экономика региона, Т. 19, вып. 1 (2023) - www.economyofregions.org.
18. Bai X. J., Yan W. K., Chiu Y. H. (2015) Performance Evaluation of China's Hi-tech Zones in the Post Financial Crisis Era. Analysis Based on the Dynamic Network SBM Model. *China Economic Review*, vol. 34, pp. 122–134.
19. Bogataj, David. The role of free economic zones in global supply chains - a case of reverse logistics. 2011.
20. Вайцеккер Э., Ловинс Э., Ловинс Х. Фактор четыре. Затрат половина – отдача двойная. Новый доклад Римскому клубу. – М.: Academia, 2000.
21. Василенко В.А. Устойчивое развитие регионов: подходы и принципы / Под ред. А.С. Новоселова. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2008. – 208 с.
22. Global Free Zone of the Year 2019 – Winners. Awards Special // fDi Magazine. – 2020. – P. 4–14.
23. Госкомстат РФ [Электронный ресурс] /Официальный сайт. - Режим доступа: <http://www.gks.ru>.
24. Ляковская Е.А. Проблемы подготовки качественных трудовых ресурсов при реализации концепции устойчивого и инновационного развития // Вестник Башкирского государственного аграрного университета. – 2017. – № 4 (44). – С. 137–145.3.
25. Liu W. and others (2018). The development evaluation of economic zones in China. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, vol. 15, iss. 1.
26. G.Fan, X.Xie, J.Chen, Z Wan, M.Yu, J.Shi - Marine policy, 2022 – Elsevier.
27. Jinhui, L., Qing I., Wei, G. & Chen, W. (2019). The Impact of Consumption Patterns on the Generation of Municipal Solid Waste in China: Evidences from Provincial Data. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 16(10), 1717. DOI: 10.3390/ijerph16101717.
28. Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России: коллективная монография / Под науч. ред. С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В. Кудрявцевой. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. — 284 с.
29. Значение свободных экономических зон в развитии национальной экономики. З.О.Умарова, Ф.Я. Обидова - Актуальные научные исследования в современном мире, 2019.
30. Индексы и индикаторы устойчивого развития Тарасова Н. П., член-корр. РАН, проф., Кручина Е. Б., к.э.н. Устойчивое развитие: природа-общество-человек. Статьи победителей конкурса. Том II. 127-144с.
31. Иншаков О. В., Крюкова Е. В. (2017) Особые экономические зоны как институт развития наноиндустрии: провалы, проблемы и перспективы. Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 3: Экономика. Экология. № 1. С. 6–17.
32. Калотай К. Особые экономические зоны и стимулирование инвестиций: международный опыт // Научные труды вольного экономического общества России. – 2019. – № 4 (218). – С. 297–307.

33. Кравченко Ю. Б. Особые экономические зоны в развитии мировой экономики // Российский внешнеэкономический вестник. – 2020. – № 1. – С. 93–103. Майбуров И. А., Иванов Ю. Б. (2017) Особые экономические зоны. Теоретико-методологические аспекты развития. Монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 351 с.
34. Мусостова Д. Ш., Мусостов З.Р. Стратегия устойчивого развития региона в условиях формирования «зеленой» экономики. г. Грозный, Чеченская Республика. Издательский дом «Среда».- Content is licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 license (CC-BY 4.0) <https://phsreda.com>.
35. Павлов П. В., Защитина Е. К. (2020) Свободные экономические зоны как современный институт развития в международном бизнесе. *Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика*. Т. 36. Вып. 4. С. 675–692. <https://doi.org/10.21638/spbu05.2020.406>.
36. Пределы роста: Доклад по проекту Римского клуба «Сложное положение человечества» / Медоуз Д.Х., Медоуз Д.Л., Рандерс Й. и др. – 2-е изд. – М.: Изд-во МГУ, 1991.
37. Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. ООН, Нью-Йорк, сентябрь 2015 г.
38. Садиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. – Т.: Иктисод-молия, 2005. – 279 с.
39. Социально-эколого-экономические проблемы устойчивого развития Х. А. Магомадова. Ростовский государственный строительный университет-ВЕСТНИК ЮРГТУ (НПИ). 2012. № 1.153-158с.
40. To'xliyev N.. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. – Т.: О'zME. 2020, - 204 б.
41. Формирование «зеленой» экономики и устойчивость развития страны и регионов Е.А. Лясковская, К.А. Григорьева Южно-Уральский государственный университет, г. Челябинск, Россия. Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». 2018. Т. 12, № 1. С. 15–22.
42. Федорова Е. В. Свободные экономические зоны: привлечение прямых реальных инвестиций: Дис. ... канд. экон. наук: СПб, 2002. 119 с.
43. Xamroyev X.R. Mintaqani barqaror rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish.dissertasiya.Buxoro.2025y.314b.
44. Хамроев Х. Р. Зонал сиёсат: методология, хорижий тажриба ва қўллаш йўналишлари //Монография. Тошкент. “Фан” нашриёти. 2008й. – 2008. – Т. 352.
45. Hamroev H.R., Hasanov R. Iqtisodiy barqarorlik shartlari. //Jamiyat va boshqaruv. Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy – tarixiy jurnal. - 2001y., N 4. 30-32b.
46. Хокен П., Ловинс Э. Ловинс Х. Естественный капитализм: грядущая промышленная революция. – М.: Наука, 2002.
47. Цуй Шань. Становление и развитие СЭЗ КНР. М. 1999г. - <https://economy-lib.com/stanovlenie-i-razvitie-sez-knr>.
48. Эркин иқтисодий зоналарни ривожлантиришнинг жаҳон тажрибаси. М.К.Рашидов - “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2018й. 5/2018 (№ 00037) www.iqtisodiyot.uz.
49. Yavmutov D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish masalalari. Monografiya. / - Buxoro. Sadridin Salim Buxoriy. 2024. -212 b.
50. О'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning jahon tajribasini qo'llash imkoniyatlari. A Laziza - Ijtimoiy fanlarda innovasiya. Onlayn ilmiy jurnal, 2022.
51. Qulmatov A.A.. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari. Iqtisod va moliya. 2020, 2 (134). – В. 152-158.
52. worldinvestmentreport.org.18 bet.
53. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2019_overview_ru.pdf
54. <http://www.buxstat.uz/>
55. <https://stat.uz/uz/>